

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI DSc. 02/30.12.2019. Tar.56.01. RAQAMLI ILMY KENGASH**

TARIX INSTITUTI

KAMOLA SHAVKAT QIZI QAYUMOVA

**TOJ SALMONIYNING “TARIXNOMA” ASARI
TARIXY MANBA SIFATIDA**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent, 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Kamola Shavkat qizi Qayumova

Toj Salmoniyning “Tarixnoma” asari tarixiy manba sifatida.....3

Камола Шавкат қизи Қайумова

“Тарих-наме” Таджа Салмани как исторический источник.....25

Kamola Shavkat kizi Kayumova

“Tarikhnama” Taj Salmoni as a historical source.....49

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Tar.56.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TARIX INSTITUTI

KAMOLA SHAVKAT QIZI QAYUMOVA

**TOJ SALMONIYNING “TARIXNOMA” ASARI
TARIXIY MANBA SIFATIDA**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent, 2024

Falsafa doktori (Doktor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Tar1007-raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta til (o'zbek, rus va ingliz (rezyume))da Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fati.uz) hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Azamat Ziyo
tarix fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Dilorom Yunusovna Yusupova
tarix fanlari doktori, akademik

Xurshid Turg'unovich Fayziyev
tarix fanlari nomzodi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti huzuridagi ilmiy darajalarni beruvchi DSc 02/30.12.2019. Tar.56.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "1" mart soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy. O'zR FA Tarix instituti. 8-qavat, majlislar zali. Tel.: (99871) 233-54-70; faks: (99871) 233-39-91, e-mail: info@fati.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (__ raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100170, Toshkent shahri Ziyolilar ko'chasi 13-uy). Tel.: (99871) 262-74-58; faks: (+99871) 262-34-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "16" fevral kuni tarqatildi.

(2024 yil "16" fevraldagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi bilan).



M.S.Isakova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori.

X.S.Jumanazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

F.S.Boboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan murakkab siyosiy jarayonlar, turli davlatlar o'rtasida yuzaga kelayotgan nizolar va urushlar, har bir xalq va millat oldiga o'zligini anglash va asrash, tarixiy xatolardan saboq chiqarish hamda qadimdan rivojlangan davlatchilik maqomini saqlab qolishdek ustuvor vazifalarni qo'yimoqda. Zotan o'zbek davlatchiligining bosh bo'g'ini bo'lgan temuriylar davrida yaratilgan manbalar nafaqat o'zbek xalqi, balki butun kishilik taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan ushbu davrga oid xalq va davlatchilikning boy tarixini asl holicha kelajak avlodga va keng jamoatchilikka yetkazib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning bir qator davlatlaridagi ilmiy tadqiqot markazlarida Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur izlanishlarda Amir Temur va temuriylar sulolasining boshqaruv tizimi, harbiy san'ati, temuriylar davrida yuz bergan iqtisodiy yuksalish, fan va madaniyatning rivojlanishi hamda mintaqalararo aloqalarning kengayishi bilan bog'liq ayrim jihatlar o'rganilgan. Ammo, temuriylar bosqichini yoritib berishda muhim ahamiyatga ega yozma manbalarning barchasi ham ilmiy muomalaga tortilmay kelayotgani temuriyshunoslikdagi dolzarb va yechimini kutayotgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Holbuki bu borada o'ta qimmatli bo'lmish, biroq mutaxassislar diqqatidan chetda qolib kelayotgan tarixiy asarlar yetarlidir. Shu nuqtai nazardan, temuriylar davrining eng kam o'rganilgan, ko'plab chigalliklari bor bosqichi sanalmish 1404 – 1409-yillar tarixiga bag'ishlangan noyob asar – “Tarixnoma”ning tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazarlaridan o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ko'p yillar davomida asl haqiqatlarga zid ravishda, asosan qora bo'yoqlarda aks ettirilgan tariximizni manbalar asosida xolis va haqqoniy yoritish imkoniyati yaratildi va buyuk tarixiy adolat qaror topmoqda. O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixiga birlamchi manbalar asosida to'laqonli baho berish, “Tariximiz, madaniyatimiz, dinimizga aloqador bir varaq qo'lyozma bo'lsa ham, ularni to'plab, xalqimizni, yoshlarimizni tanishtirish, bizning qanday buyuk va betakror merosimiz borligini anglatish, farzandlarimizni shu ulug' merosga munosib etib tarbiyalash”¹ asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Shu jihatdan Amir Temur devonida kotib sifatida tanilgan, mashhur xattot Toj Salmoniy qalamiga mansub “Tarixnoma” asari Amir Temur vafotidan Shohruxning hokimiyat tepasiga kelgunicha bo'lgan davr voqea-hodisalari tasvirlangan ilk manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning manbashunoslik jihatidan o'rganilishi 1404 – 1409-yillari o'zbek davlatchiligida kechgan murakkab jarayonning ko'p jihatlarini qayta ko'rib chiqish, oydinlashtirish va to'ldirish imkonini beradi. Zero, tadqiqot manbasi

¹Mirziyoyev Sh. «Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz». Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 471-bet.

sifatida olingan “Tarixnoma” asari haligacha maxsus tadqiq etilmagan va to‘liq ilmiy muomalaga tortilmagan. Bu esa, mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4390-son “O‘zbekiston tarixi” telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi². Toj Salmoniyning “Tarixnoma” asariga aloqador adabiyotlar va tadqiqotlarni shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Chor va sovet hokimiyati davrida chop etilgan adabiyotlar;
2. Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar;
3. Xorijiy tadqiqotchilarning izlanishlari.

Birinchi guruhga oid tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz, “Tarixnoma” asarini rus va sovet tadqiqotchilari orasida “Shohruxning anonimi” sifatida tanishtirgan³ va o‘z tadqiqotlarida ham asarni shu nom bilan qayd etgan olim V.V.Bartoldni alohida ta’kidlab o‘tish lozim⁴.

V.V.Bartolddan so‘ng ham ushbu davrga oid bir qator tadqiqotlarda Amir Temur vafotidan keyingi hokimiyat uchun kurashlar davri (1405 – 1409) yoritilgan⁵. Ammo ushbu tadqiqotlarda mazkur davrlar tarixi uchun birlamchi yozma manba hisoblangan “Tarixnoma” asaridan foydalanilganligi ko‘zga tashlanmaydi. Bu holatni ayrim tadqiqotchilarning ushbu manba va uning muallifi haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lmaganligi va ushbu davrlar tarixini yoritishda V.V.Bartoldning yuqorida ta’kidlangan asarlarini asos qilib olganligi bilan izohlash mumkin.

Keyingi yillarda esa “Tarixnoma” va uning muallifi bilan bog‘liq ma‘lumotlarning tadqiqotlarda qayd etilganligi hamda ba’zi adabiyotlarda Amir

² Tadqiqot mavzusi xususiyati va belgilangan maqsaddan kelib chiqib Toj Salmoniy “Tarixnoma” asarini yorituvchi ishlar maxsus bobda tahlil qilindi.

³ Бартольд В.В. Отчет о командировке в Лондон // Сочинения. – Т. VIII. – Москва: Наука, 1973. – С. 320 – 323.

⁴ Бартольд В.В. Улугбек и его время // ЗРАН. – Т. XIII. – СПб.: Типография Российской Академии наук, 1918. – 160 с.; Бартольд В.В. Улугбек и его время // Сочинения. – Том II. (Часть 2: Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии) / Отв.ред. Б.Г.Гафуров. – Москва: Наука, 1964. – С. 72–84.

⁵ Ахмедов Б.А. Улугбек и политическая жизнь Мавераннахра первой половины XV в // Из истории эпохи Улугбека. – Ташкент, 1965. – С. 5-66; История Узбекской ССР. Т. I. Кн.1. С древнейших времен до середины XIX в. – Ташкент: Фан, 1967. – С. 435–508.

Temur va temuriylar tarixini yorituvchi manbalar qatorida “Tarixnoma” va uning muallifi bilan bog‘liq ma’lumotlarning ham keltirib o‘tilganligi ko‘zga tashlanadi⁶.

Ikkinchi guruh adabiyotlari xususida shuni aytib o‘tish lozimki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda Amir Temur va temuriylar tarixiga oid salmoqli asarlar yaratildi. Ammo ushbu asarlarda Toj Salmoniyning “Tarixnoma” asari yozma manba o‘laroq tadqiqotlarga nisbatan kam tortildi. Bu holatni “Tarixnoma” asarining dunyoda kam nusxada tarqalganligi va ulardan hech birining O‘zbekistonda mavjud emasligi, shu bilan birga, asarning mavjud tarjimalari ham yurtimizda keng ko‘lamda tarqalmaganligi bilan izohlash mumkin.

Shunga qaramay O‘zbekistonda mavjud bir guruh adabiyotlarda Amir Temur va temuriylar tarixiga oid manbalar qatorida “Tarixnoma” va uning muallifi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirib o‘tilgan⁷.

Uchinchi guruhga oid adabiyotlar Amir Temur va temuriylar davri tarixi hamda ushbu davrlarda yaratilgan yozma manbalarga oid qiziqarli tahlil va xulosalar aks etgan tadqiqotlar hisoblanadi. Ulardan V.Hinz, J. Vuds, Sh.Ando, I.Binbash, Sh.Sosonpur, F.Rustamiy, H.Ryomer, B.F. Manz, Ismoil Aka, A.R.Yog‘li, M.Sh. Yuksel, M.Shahbaz kabi tadqiqotchilar ishlari ayniqsa muhimdir⁸. Xususan, Sh.Ando, I.Binbash kabi olimlar “Tarixnoma” asarining

⁶ Бартольд В.В. Улугбек и его время // Сочинения:Том II. (Часть 2: Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии) / Отв.ред. Б.Г.Гафуров. – Москва: Наука, 1964. – С. 72-84; Стори Ч.А. Персидская литература. Библиографический обзор. – Ч. 2. – Москва, 1972. – С. 815–816; Чехович О.Д. Самаркандские документы XV–XVI вв. (О владениях Ходжа Ахрара в Средней Азии и Афганистане) Факсимиле, критический текст, перевод, введения, примечания и указатели. – Москва, 1974.

⁷ Темур ва Улугбек даври тарихи. – Тошкент, 1996. – Б. 17; Уватов У. Ибн Арабшоҳ Темур ва темурийлар даври маданият ҳаёти ҳақида // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. – Тошкент, 1997. – Б. 158-165; Аҳмедов Б.А., Мукминова Р.Г., Пугаченкова Г.А. Амир Темур. Жизнь и общественно-политическая деятельность. – Ташкент, 1999. – С. 5; Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари: (қадимги ва ўрта асрлар). – Тошкент, 2001. – Б. 173-174; Аҳмедов Б.А. Амир Темур дарслари: Умумий таълим ва махсус тарих мактаблари ўқитувчилари ва ўқувчилари учун қўлланма. – Тошкент, 2001. – 144 б.; Саидқосимов С., Аҳмедов А., Аҳмедов Б. ва бош. Амир Темур жаҳон тарихида. – Тошкент, 2001. – Б. 198-199; Аҳадов Ш.А., Эгамов Т.С. Амир Темур ва темурийлар даврининг интеллектуал салоҳияти. – Самарқанд, 2004. – 94 б.; Темиров Ф. Амир Темур даврида Марказий Осиёда илм-маърифат // Амир Темурнинг миллий давлатчилик сиёсати: тарих ва ҳозирги замон мавзуидаги Амир Темур таваллудининг 670 йиллигига бағишланган илмий конференция материаллари. – Тошкент, 2006. – Б. 80-87; Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent, 2008. – Б. 197-198; Натанзий Муиниддин. Мунтахаб ут-таворихи Муиний (Муиний тарихлари танланмаси). – Тошкент, 2011. – Б. 6; Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Тошкент, 2017. – Б. 26; История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. – Ташкент: Фан, 2017. – 568 с.; Юсупова Д. Письменные источники о развитии науки при Амуре Темуре // Мавераннахр в эпоху Амира Темура. Археология, история. – Тошкент, 2018. – Б. 172-183; Мамадалиев Х. Самарқанд илмий муҳитининг шаклланишида Амир Темурнинг ўрни // Мавераннахр в эпоху Амира Темура. Археология, история, культура. – Тошкент, 2018. – Б. 183-186; Бўриев О. Амир Темур ва Темурийлар тарихига оид асосий манбалар // Очерки историографии государственности Узбекистана. Т. 1. – Ташкент, 2018. – Б. 67-86; Дадабоев Х. Амир Темур даврдошлари (Амир Темур тарихидан сўзловчи энциклопедик луғат). – Ташкент, 2018. – Б. 176; Бўриев О. Турон тарихининг олтин даври. – Тошкент, 2019. – 367 б.; R.Arslonzoda. Manbashunoslik. Farg‘ona, 2022. – Б. 128-129.

⁸ Hinz Walther. Quellenstudien zur Geschichte der Timuriden / Zeitschrift der Deutschen Morgenländischen Gesellschaft. Vol. 90 (n.F. 15). No. 2 (1936). – S. 357-398; Woods J.E. The Rise of Timurid Historiography // Journal of Near Eastern Studies. Vol. 46. N 2. 1987. – P. 88; Ando Shiro. Die timuridische Historiographie II – Šaraf al-Dīn ‘Alī Yazdī. – Kyoto, 1995. – P. 219–246; Ilker Evrim Binbas. Sharaf Al-Dīn 'Alī Yazdī (ca. 770s-858/ca. 1370s-1454): prophecy, politics, and historiography in late medieval islamic history. – Chicago, 2009. – P. 271; ۲۰ معرفى نسخه خطى «شمس الحسن» اثر تاج الدين سلمانى. كتاب ماه تاريخ و جغرافيا بهمن ۱۳۷۹ شماره ۴۰. ص ۲۷۱-۲۷۲. فاطمه رستمى، تاريخ نگارى شمس الحسن و وجوه اشتراك آن با دو اثر متأخر خود (ظفرنامه يزدي و جامع التواريخ حسنى)، دو فصلنامه . پور. ۷۳/ الزهراء، سال بيست و دوم، دوره جديد، شماره ۱۰. پياپى ۹۴. پاييز و زمستان -ص. ۵۵- علمى- پژوهشى تاريخ نگرى و تاريخ نگارى دانشگاه

Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asari bilan bog‘liq jihatlariga to‘xtalgan bo‘lsa⁹, F.Rustamiy uch asarni – Toj Salmoniyning “Tarixnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” va Ibn Shihob Yazdiyning “Jome ut-tavorix Xasaniy” asarlarini Amir Temur vafotidan so‘ng uning vorislari tomonidan sulola hukmronligini yanada mustahkamlash maqsadida yaratilgan asarlar sifatida talqin qiladi¹⁰.

Amalga oshirilgan tarixshunoslik tahlili “Tarixnoma”ni manbashunoslik nuqtayi nazardan ilmiy muammolar qo‘yib o‘rganishning ham ilmiy-nazariy, ham ilmiy-amaliy jihatdan zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarining “O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)” nomli o‘n jildlik asar yaratish qismidan o‘rin olgan.

Tadqiqotning maqsadi Toj Salmoniy “Tarixnoma” asarining tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Toj Salmoniyning hayoti va faoliyatini ochib berish;

asarning manbalarini aniqlash;

“Tarixnoma”ning o‘rta asr tarixnavislari asarlarida tutgan o‘rnini ko‘rsatish;

muallifning yondashuvi, asarni yozishdan maqsadi va tarixiy voqea-hodisalarni ifoda etish usullarini yoritish;

“Tarixnoma” asarining tarkibi, tili va uslubini tavsif va tahlil qilish;

Toj Salmoniy hayoti va faoliyati, ilmiy merosining o‘rganilishiga oid ilmiy adabiyotlarni aniqlash, jamlash, tizimlashtirish va tahlil qilish, mavzuga doir xorijiy nashrlarni sharhlash;

asarda aks etgan siyosiy jarayonlarni ushbu davrga oid boshqa manbalar bilan qiyosiy o‘rganish;

“Tarixnoma” asarida bo‘lgan, ammo boshqa manbalarda aks etmagan tarixiy ma’lumotlarni aniqlash;

manbadagi ma’lumotlarni tasniflash va tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toj Salmoniyning “Tarixnoma” asari olingan.

۱۳۹۱ ; Roemer H.R. Timur and His Successors in Iran // The Cambridge history of Iran. – Vol. 6. The Timurid and Safavid periods, ed. Peter Jackson and Laurence Lockhart. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 42-146; Manz B.F. The rise and rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – P. 128-148; O‘sha muallif. Power, Politics and Religion in Timurid Iran. – Cambridge, 2007. – 336 p.; İsmail Aka. Timur ve Devleti. – Ankara, 2000. – S. 172; O‘sha muallif. Şahruh ve Zamani (1405-1447). – Ankara, 1994. – S. 260; O‘sha muallif. Mirza Şahruh zamaninde (1405-1447) timurularada imar faaliyetlei. – Belleten, 1984. – S. 189-190; Ali Rıza Yağlı. Timurlu Devleti Emirleri. I-Barlas Boyu: Hudaydad Huseyni Barlas // Turk tarihine dair Yazilar III. – Ankara, 2018. – S. 745-758; Musa Şamil Yüksel. Timurlularada Din-Devlet İlişkisi. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 2009; Mehibe Şahbaz. Timurlu mirzalar meselesi // Ç.Ü. Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. Cilt 27. Sayı 2. 2018. – S. 18-32.

⁹ Ando Shiro. Die timuridische Historiographie II – Şaraf al-Dīn ‘Alī Yazdī. – P. 225; Ilker Evrim Binbas. Sharaf Al-Dīn ‘Alī Yazdī (ca. 770s-858/ca. 1370s-1454): prophecy, politics, and historiography in late medieval islamic history. – Kyoto, 1995. – P. 271.

¹⁰ ۲۶-۶۳. تاریخ نگاری شمس الحسن و وجوه اشتراك آن با دو اثر متأخر خود (ظفرنامه یزدی و جامع التواریخ حسنی). ص. ۲۶-۶۳

Tadqiqotning predmetini Toj Salmoniyning “Tarixnoma” asarida aks etgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy jarayonlarni tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy, miqdoriy, mazmuniy tahlil, tizimlilik, davriylik kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Amir Temur o‘limidan so‘ng yuzaga kelgan murakkab vaziyat, ayniqsa, valiahdlik, temuriy shahzodalarning taxt uchun kurash jarayoni va ularda davlat boshqaruviga ta’siri doimo sezilarli bo‘lib kelgan yirik amirlar, jumladan, Shohmalik, Xudoydod Husayniy, Shayx Nuriddin, Pir Ali Toz kabilarning muhim o‘rin tutganligi oydinlashtirib berilgan;

Shohruxning Samarqand taxtini egallab, Amir Temur meros – ulug‘ saltanatni tiklash yo‘lidagi rejali harakati, xususan, dastlab Xuroson va uning atrofida siyosiy tartib o‘rnatib, so‘ng Turonda hokimiyatni qo‘lga olish uchun harbiy harakatlarni boshlashi, mazkur jarayonga Xalil Sulton yaqinlari sanalib kelingan Xudoydod Husayniy va Shayx Nuriddin singari nufuzli beklarning ham tortilganlari dalillangan;

Bobosining vasiyatiga teskari ravishda Turon taxtini qo‘lga olgan Xalil Sultonning hukmronligining to‘rt yil deganda inqirozga uchrashining siyosiy (mamlakat boshqaruvini xotini (Shodmulk) qo‘liga topshirib qo‘ygani, davlatni mustahkamlash haqida o‘ylamagani, uning birorta dushmanni mag‘lub etolmagani va birorta ham hududni egallay olmagan, aql sohiblarini davlat boshqaruviga jalb qilmagani va ularga yetarli darajada e’tibor bermagani, o‘zi bilan ittifoqda bo‘lgan hatto eng oddiy xizmatkor va eng kichik navkarlarning ham rayiga qarshi bora olmagan), ijtimoiy-iqtisodiy (poytaxtga ko‘chirib keltirilgan ko‘plab qavmlarning Samarqandni tark etgani, hukmdorning dindan uzoqlashgani, mamlakat iqtisodini izdan chiqaradigan darajada qilgan in’om va ehsonlari va boshqalar) omillari aniqlangan;

Amir Temur o‘limidan so‘ng unga tegishli haramning kelgusi taqdiri bilan bog‘liq savollarga (ushbu davrga oid aksariyat manbalarda Xalil Sulton hokimiyatni egallagandan so‘ng bobosi Amir Temur xotinlarini turli shaxslarga majburan turmushga berib yuborishi ta’kidlangani holda, hech bir manbada mazkur shaxslarning kimligi bilan bog‘liq masala ochiq qolgan) birlamchi javoblar (“Tarixnoma”da Amir Temur va Muhammad Sulton xotinlari turmushga berilgan saroy amaldorlarining shaxsi nomma-nom sanalgan va ularning kelib chiqishi, fe’l-atvorigacha ochiq-oydin bayon qilingan) aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

asarning o‘rganilish tarixiga bag‘ishlangan qismida “Tarixnoma” asari xususida yaratilgan adabiyotlar bir joyga jamlangan holda tanqidiy tahlil qilinib, uning tarjimalari va nashrlari asarning mavjud qo‘lyozma nusxalari asosida qayta ko‘rib chiqilgan hamda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklari aniqlangan;

Toj Salmoniyning “Tarixnoma” asarida aks etgan siyosiy jarayonlar ushbu davrga oid bir qator tarixiy manbalar, xususan, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Hofiz Abruning “Zubdat ut-tavorihi Boysung‘uriy”, “Zayli Zafarnomai Shomiy”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Abdurazzoq

Samarqandiyning “Matla’ us-sadayn va majma’ ul-bahrayn”, Muiniddin Natanziyning “Muntahab ut tavorihi Muiniy”, Sa’id Ja’fariyning “Tarixi Ja’fariy”, Fasih Havofiyning “Mujmali Fasihiy”, Mirxondning “Ravzat us-safo”, G’iyosiddin Xondamirning “Habib us-siyaar”, noma’lum muallifli “Muizz al-ansob fiy shajarot al ansob”, Hasanbek Rumluning “Ahsan ut-tavorix” kabi ko‘plab tarixiy asarlarda aks etgan ma’lumotlar bilan taqqoslangan va qiyosiy tahlili amalga oshirilgan;

Toj Salmoniyning “Tarixnoma” asari matni tarjima qilinib, ilmiy izohlar tuzilgan holda tarjimaning ayrim qismlaridan tadqiqotda ham foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “Tarixnoma” asarining ilk bor alohida, yaxlit tadqiq etilganligi, uning asosida o‘zbek davlatchiligida temuriylar hukmronligining 1404–1409-yillarda kechgan ziddiyatli siyosiy tarixini yoritish, ayni paytda ushbu davrda mintaqamizda yuz bergan iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga oid qimmatli ma’lumotlarning tanqidiy umumlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Tarixnoma” asarining o‘zbek davlatchiligi tarixida Amir Temur vafotidan so‘ng yuz bergan voqea va hodisalarni chuqurroq o‘rganishda, ushbu davr tafsilotlari bilan to‘ldirilgan va qayta ko‘rib chiqilgan tarzda yozish, ayrim hollarda tuzatishlar kiritishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Toj Salmoniyning “Tarixnoma” asarini tarixiy manba sifatida o‘rganish natijasida olingan ilmiy yangiliklar va amaliy takliflar asosida:

Toj Salmoniy qalamiga mansub “Tarixnoma” asarida keltirilgan Amir Temur o‘limidan so‘ng yuzaga kelgan murakkab vaziyat, ayniqsa, valiahdlik, temuriy shahzodalarning taxt uchun kurashlari va ularda davlat boshqaruviga ta’siri doimo sezilarli bo‘lib kelgan yirik amirlar, jumladan, Shohmalik, Xudoydod Husayniy, Shayx Nuriddin, Burunduq, Arg‘unshoh, Xoja Yusuf, Allohdod, Sulaymonshoh, Sa’idxoja, Jahonmalik, Pir Ali Toz kabilarning muhim o‘rin tutganligi oydinlashganligi, Shohruxning Samarqand taxtini egallab, Amir Temur meros – ulug‘ saltanatni tiklash yo‘lidagi rejali harakati, xususan, dastlab Xuroson va uning atrofida siyosiy tartib o‘rnatib, so‘ng Turonda hokimiyatni qo‘lga olish uchun harbiy harakatlarni boshlashi, mazkur jarayonga Xalil Sulton yaqinlari sanalib kelingan Xudoydod Husayniy va Shayx Nuriddin singari nufuzli beklarning ham tortilganlarini dalillash asosida olingan ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqqimot” ko‘rsatuvi ssyenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DUK ning 2023-yil 12-apreldagi 02-31-556-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalarning joriy etilishi Toj Salmoniy “Tarixnoma” asari to‘g‘risidagi yangi ma’lumotlarni ommalashtirishga xizmat qilgan.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi gidlari yo‘riqnomalarini Amir Temurning vasiyatiga teskari ravishda Turon taxtini qo‘lga olgan Xalil Sultonning hukmronligining uzoqqa cho‘zilmay, to‘rt yil deganda inqirozga uchrashining siyosiy (mamlakat boshqaruvini xotini (Shodmulik) qo‘liga topshirib qo‘ygani, davlatni mustahkamlash haqida o‘ylamagani, uning birorta dushmani mag‘lub etolmagani va birorta ham hududni egallay olmagan, aql sohiblarini davlat boshqaruviga jalb qilmagan va ularga yetarli darajada e‘tibor bermagan, o‘zi bilan ittifoqda bo‘lgan hatto eng oddiy xizmatkor va eng kichik navkarlarning ham rayiga qarshi bora olmagan), ijtimoiy-iqtisodiy (poytaxtga ko‘chirib keltirilgan ko‘plab qavmlarning Samarqandni tark etgani, hukmdorning dindan uzoqlashgani, mamlakat iqtisodini izdan chiqaradigan darajada qilgan in‘om va ehsonlari va boshqalar) omillari aniqlangani, Amir Temur o‘limidan so‘ng unga tegishli haramning kelgusi taqdiri bilan bog‘liq savollarga (ushbu davrga oid aksariyat manbalarda Xalil Sulton hokimiyatni egallagandan so‘ng bobosi Amir Temur xotinlarini turli shaxslarga majburan turmushga berib yuborishi ta‘kidlangani holda, hech bir manbada mazkur shaxslarning kimligi bilan bog‘liq masala ochiq qilmagan) birlamchi javoblar (“Tarixnoma”da Amir Temur va Muhammad Sulton xotinlari turmushga berilgan saroy amaldorlarining shaxsi nomma-nom sanalgani va ularning kelib chiqishi, fe‘l-atvorigacha ochiq-oydin bayon qilingani) topilgani haqidagi yangi materiallar bilan to‘ldirish va takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 2023-yil 3-oktabrdagi 3/1255-2102-son ma‘lumotnomasi). Mazkur tadqiqot natijalari va xulosalarning qo‘llanishi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining “Arxiv” fondini yangi ma‘lumotlar bilan to‘ldirishga hamda tashrif buyuruvchilarning Amir Temur va temuriylar davriga doir bilimlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy yig‘inlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy ish e‘lon qilingan. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola respublika va 3 tasi xorij jurnallarida, 8 tasi esa respublika va xalqaro ilmiy-amaliy yig‘inlar to‘plamlarida e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, o‘rganish ob‘ekti va predmeti aniqlangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilinib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda tadqiqot natijalarining

amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobeiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertasiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Tarixnoma” asarining manbaviy ahamiyati va o'rganilishi**” deb nomlangan birinchi bobida Toj Salmoniyning hayot yo'li manbalar asosida ochib berilgan. Shu bilan birga mazkur bobda Toj Salmoniy qalamiga oid “Tarixnoma” asari, ushbu asarning qo'lyozma nusxalari, nashrlari, yozilish tarixi, mazmuni va uslubi, shuningdek, “Tarixnoma” asarining o'rganilishiga doir ma'lumotlar tahlil qilingan.

Mazkur bobning *“Toj Salmoniy hayoti va faoliyati”* deb nomlangan birinchi paragrafida Toj Salmoniyning faoliyatiga xattot, kotib, shoir, tarixchi hamda siyosiy arbob sifatida baho berilib, manbalarda bu borada keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilingan.

Ba'zi manba va adabiyotlarda Toj Salmoniyning isfahonlik ekani ta'kidlangan¹¹. “Salmoniy” taxallusidan esa uning nasl-nasabini Salmon Forisiyga¹² borib ulanadi, degan qarashlar ham bor¹³. Xattot va naqqoshlar tarjimayi holiga bag'ishlangan asar egasi Qozi Ahmad Qumiy (1519 – 1578) isfahonlik Toj Salmoniy *riqo*¹⁴ va *tavqe*¹⁵ xatlari asosida *ta'liq*¹⁶ xatini ixtiro qilganini qayd etib o'tgan¹⁷. Shu o'rinda, *nasta'liq* xat turi ham bu muallif tomonidan kashf etilgani haqida ta'kidlar borligini eslatib o'tish lozim¹⁸.

Ibn Arabshoh Amir Temurning saroy ahli bilan bir qatorda temuriylar davri kitob ahli va mohir xattotlari qatorida Toj Salmoniy nomini ham tilga oladi¹⁹. Xondamir ham Toj Salmoniy xattotlik san'atida yuksak darajaga erishgan shaxs sifatida ta'riflaydi²⁰.

Toj Salmoniy tomonidan yozilgan maktublardan bir qanchasi bizgacha yetib kelgan²¹. Chunonchi *“فرائد غیائی”* (*“G'iyosiyning qimmatligi”*) da keltirilgan, Toj

¹¹ Woods J.E. The Rise of Timurid Historiography // Journal of Near Eastern Studies. – Vol. 46. N 2. 1987. – P. 88; Taj al-Salmani. Shams al-husn: eine Chronik vom Tode Timurs bis zum Jahre 1409 von Tag al-salmani. – Wiesbaden. 1956. – P. 6.

¹² Abu Abdulloh Salmon Forisiy (658-yili o'lgan) — Muhammad payg'ambarning mavlolaridan; asli isfahonlik bo'lib, tasavvufning asoschilaridan biri sanaladi.

¹³ فاطمه رستمی، تاریخ نگاری شمس الحسن و وجوه اشتراك آن با دو اثر متأخر خود (ظفرنامه یزدی و جامع التواریخ حسنی)، دو فصلنامه علمی- پژوهشی تاریخ نگاری و تاریخ نگاری دانشگاه. ص. ۵۸ / الزهراء، سال بیست و دوم، دوره جدید، شماره ۱۰. پایانی ۹۴. پاییز و زمستان ۱۳۹

¹⁴ Riqo (arab, ruq'a – maktub) — xattotlik uslubi; arab yozuvidagi xat uslublaridan biri. Xat tarixchisi Ibn Nadim fikricha, Riqo suls yozuvidan kelib chiqqan.

¹⁵ Tavqe (arab. shoh yorlig'i, farmoni, muhri) – xattotlik uslubi, arab yozuvidagi xat uslublaridan biri. Shoh farmon va nishonlari, qozixona, mahkama hujjatlari, asosan, Tavqeda bitilgan.

¹⁶ Ta'liq (arab. Osish, ilish) — xattotlik uslubi; arab yozuvidagi xat uslublaridan biri. XIV asrda tavqe va riqo xatlari asosida ixtiro qilingan.

¹⁷ تاریخ نگاری شمس الحسن و وجوه اشتراك آن با دو اثر متأخر خود. ص. ۵۸. گلستان هنر. ص. ۴۲.

¹⁸ Holbuki nasta'liq xatini Mir Ali Tabriziy ixtiro qilgani ko'pchilik tomonidan tan olingan (qarang: The Rise of Timurid Historiography. – P. 88; تهران. ۱۳۹۳. تاج السلمانی. تاریخ نامه (شمس الحسن). اکبر صبوری. – P. 88; .)

Казми-Ахмед. Трактат о каллиграфиях и художниках. – Москва. 1947. – С. 105.)

¹⁹ Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: (Темур тарихида тақдир ажойиботлари) / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган; Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. 2 – китоб. – Тошкент: Меҳнат, 1992. – Б. 86

²⁰ تاریخ نگاری شمس الحسن و وجوه اشتراك آن با دو اثر متأخر خود. ص. ۵۹.

²¹ نتائج الافكار (Istanbul universiteti bosh kutubxonasi. Raqami 3333), (Asad afandi kutubxonasi. Raqami 399) munshootida Toj Salmoniy qalamiga mansub beshta maktub o'rin olgan. Shuningdek, Jaloliddin Yusuf Ahlning hijriy II-VIII asrlarga oid olimlar, hukmdorlar va shoirlarning maktublarini o'z ichiga olgan فرائد غیائی

Salmoniy qalamiga tegishli xatning hoshiyasida shunday ma'lumot bor: "Yashirin qolmasinkim, hazrat Sulton Sohibqiron bu kamtarin bandaga Vatvot²² taxallusini buyurdi va shu nom bilan atadi..."²³. Demak, Toj Salmoniy Amir Temur devoniga qabul qilinganda, uning nazariga tushgan va yaqin kishilari qatorida bo'lgan²⁴.

خلاصة الاخبار فى بيان احوال الاخيار ("Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi") asarining Hirot tavsifiga bag'ishlangan qismida Xo'ja Toj Salmoniy nomli shoirning she'ri tilga olinadi²⁵. Gap aynan mazkur muallif haqida ekani uning "Tarixnoma" sida o'z qalamiga oid ko'plab she'rlarni keltirgani, Amir Temur Shayx Ahmad Yassaviy qabrini ziyorat qilganida, Toj Salmoniydan unga atab she'r bitishni so'ragani²⁶ va Mu'iniddin Muhammad Isfizoriy Zamchi (1494-yili o'lgan) ham o'zining mashhur روضات الجنات فى اوصاف مدينة هرات ("Hirot shahri tasvirida jannat bog'chalari") asarida Toj Salmoniy she'rlaridan ko'p o'rinlarda foydalanganini²⁷ inobatga olib, u nafaqat kotib, balki o'z davrining yetuk shoiri bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Tarixchi Ibn Arabshoh Amir Temurning amirlari va vazirlari hisobsiz ekanligi va ularning eng mashhurlarini asarida keltirganligini ta'kidlab, Amir Temurning devonlaridan²⁸ oltitasining nomini qayd etgan va ushbu shaxslar orasida Toj Salmoniy ham keltirib o'tgan²⁹. Ushbu davr tarixchisi tomonidan bu ma'lumotning keltirilishining o'ziyoq Toj Salmoniyning temuriylar saltanatida siyosiy arbob sifatida o'z o'rniga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Mazkur bobning "Tarixnoma" asarining manbalari, qo'lyozma nusxalari, nashrlari" deb nomlangan ikkinchi paragrafida Toj Salmoniyning ushbu asarni yozishda foydalangan manbalari va "Tarixnoma" asari asosida yozilgan manbalar, asarning dunyoda mavjud qo'lyozma nusxalari hamda nashrlariga doir ma'lumotlar tahlil qilingan.

Toj Salmoniy asosan uch turdagi manbalarga suyangan holda ish ko'rgan: 1. Muallifning ko'rgan-kechirganlari. Bilganlari; 2. Davr shohidlari va voqealar ishtirokchilari xotiralari, og'zaki guvohliklari; 3. Rasmiy hujjatlar: maktublar, ta'ziyanoma, taqabbul (ahdnoma) va iltimosnomalar.

Muallif "Tarixnoma" da keltirilgan aksariyat tarixiy jarayonlarni tasvirlashda asosan, o'zi guvohi bo'lgan va boshidan kechirgan, og'zaki axborot va rasmiy hujjatlarga murojaat qiladi.

"Tarixnoma" asari 1404 – 1409-yillarda kechgan tarixiy jarayonlar yoritilgan ilk tarixiy manba sifatida o'zidan so'ng yozilgan ayrim tarixiy asarlar uchun ham

maktubotida (Ayo Sofiya kutubxonasi. Raqami 4155) ham Toj Salmoniy tomonidan yozilgan maktublar bor (Taci's-Selmani. Tarihname. – Ankara. 1988. – S. 6.).

²² Vatvot (وطواط) — ko'rshapalak, uchar sichqon; shaxsning jussasi kichikligiga ishora bo'lishi ham mumkin; ushbu so'z ko'p gapiruvchi va tez so'zlovchilarga nisbatan ham ishlatilgan.

²³ جلال الدين يوسف اهل. فراند غياتى. تهران، ۱۳۵۸. ص. ۱۸۹.

²⁴ تاريخ نگارى شمس الحسن و وجوه اشتراك آن با دو اثر متأخر خود. ص. ۵۸.

²⁵ خواندمير. خلاصة الاخبار فى بيان احوال الاخيار. 4616.

²⁶ تاريخنامه (شمس الحسن). ص. ۲۱-۲۲.

²⁷ معين الدين محمد زمجى اسفزارى. روضات الجنات فى اوصاف مدينة هرات. تهران ۱۳۳۹.

²⁸ Devon — ushbu so'zning bir qancha ma'nolari mavjud bo'lib, bu o'rinda davlat kirim-chiqim ishlari (daftaronasi)ning boshlig'i nazarda tutilgan.

²⁹ Темур тарихида тақдир ажойиботлари. – Б. 84.

manba vazifasini o'tagan. Shu jihatdan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Sa'id Jafariyning "Tarixi Ja'fariy", Ibn Arabshohning "Temur tarixida taqdir ajoyibotlari" kabi asarlarida 1404 – 1409-yillar tarixini yoritishda "Tarixnoma"ga suyanilgani ko'zga tashlanadi.

"Tarixnoma" asarining dunyoda uchta qo'lyozma nusxasi aniqlangan. Ulardan biri Angliyada³⁰, qolgan ikkitasi Turkiyaning qo'lyozmalar majmualarida saqlanmoqda³¹.

"Tarixnoma" asarining tarjimalariga to'xtaladigan bo'lsak, uni birinchi bo'lib 1956-yili Hans Robert Ryomer nemis tiliga o'girib, "Šams al-ħusn" (الحسن شمس) nomi bilan e'lon qilgan³². Asarning turkcha tarjimasini Ismoil Aka Sulaymoniya kutubxonasi tarkibidagi Lala Ismoil Afandi kolleksiyasida saqlanayotgan nusxa va Hans Robert Ryomer tarjimasida asosida 1988-yili bajargan³³. "Tarixnoma"ning 1991-yil ruschaga o'girilgani ham bo'lib, uning muallifi Ziyoy Bunyodovdir³⁴.

Asarining to'liq forscha matni 2014-yilda Akbar Saburiy tomonidan amalga oshirildi. U mazkur nashrni asarning Turkiyada mavjud ikkita qo'lyozma nusxa asosida, Britaniya muzeyi kutubxonasidagi nusxa, shuningdek H.Ryomer va Ismoil Aka tarjimalari jarayonidagi izlanishlardan fodlangan holda asarning forscha matnini nashr ettirdi³⁵.

Mazkur bobning "*Asarning yozilish sababi, umumiy mazmuni va uslubi*" deb nomlangan uchinchi paragrafida "Tarixnoma"ning yozilish tarixi, muallifning asarni yozishdan asosiy maqsadi, asarning uslubi va til xususiyatlariga doir masalalar yoritilgan.

"Tarixnoma" asari uslub va til xususiyatlari jihatidan ham alohida o'ringa ega. Asarda badiiy vositalar, oyat va hadislar, arab va fors she'rlari tarixiy ma'lumotlar bilan aralash holda keltirilgan bo'lib, bu hol asarning ayrim joylarini o'qib tushunishni birmuncha qiyinlashtiradi. "Tarixnoma" asari garchi fors tilida yozilgan bo'lsada, unda turkiy tildagi qator atama va iboralardan ham ko'p o'rinlarda foydalanilgan.

Ahamiyatli tomoni shundaki, "Tarixnoma"ning boshidan to Amir Temur vafotigacha bo'lgan qismida tasviriy ifodalar, voqealarni badiiy tasvirlash ustun bo'lgan bo'lsa, asarning keyingi qismlarida harbiy-siyosiy hodisalarning tarixiylik nuqtai nazardan bayon qilish uslubidan keng foydalanilganligi ko'zga tashlanadi.

Shunisi ahamiyatliki, muallif asarda tarixiy-siyosiy voqealarni bayon qilishda davriy ketma-ketlikka to'liq rioya qilmagan.

Mazkur bobning "*Tarixnoma*" asarining o'rganilishi" deb nomlangan to'rtinchi paragrafida Toj Salmoniy "Tarixnoma" asariga aloqador ishlar hududiy

³⁰ Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanayotgan Or.159 raqamli nusxa.

³¹ Istanbuldagi Fotih kutubxonasida saqlanayotgan 4305 raqamli nusxa va Sulaymoniya kutubxonasi tarkibidagi Lala Ismoil Afandi kolleksiyasida saqlanayotgan 304 raqamli nusxa.

³² Taj al-Salmani, Shams al-husn: eine Chronik vom Tode Timurs bis zum Jahre 1409 von Tağ al-salmani, edited and translated by Hans Robert Roemer. – Wiesbaden. 1956.

³³ Таҷӣ'с-Селмани.Тарихнаме. Ёсмаил Ака. – Анкара. 1988.

³⁴ Тадж ад-дин ас-Салмани. Тарих-наме. Зия Бунияттов. – Баку. 1997.

³⁵ تاریخ نامه (شمس الحسن). اکبر صیوری. تهران. ۱۳۹۳.

va davriy bosqichlarga bo‘lingan holda tadqiq qilindi. O‘zbekistonda mavjud bir guruh adabiyotlarda Amir Temur va temuriylar tarixiga oid manbalar qatorida “Tarixnoma” va uning muallifi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirib o‘tilgan³⁶. Ushbu adabiyotlarning aksariyatida Toj Salmoniy va uning asari bilan bog‘liq umumiy va takrorlanuvchi ma’lumotlar keltirilgan. Ammo ba’zi adabiyotlarda “Tarixnoma” asari haqidagi ma’lumotlarning bir qadar tahlil etilib, ushbu asar xususida munosabat bildirish holatlari ham kuzatilgan³⁷.

Xorijiy tadqiqotchilarning izlanishlarida Toj Salmoniy “Tarixnoma” asariga oid qiziqarli tahlil va xulosalar aks etgani ko‘zga tashlanadi. Ular ichida V.Hinz, J. Vuds, Sh.Ando, I.Binbash, Sh.Sosonpur, F.Rustamiy, H.Ryomer, B.F. Manz, Ismoil Aka, A.R.Yog‘li, M.Sh. Yuksel, M.Shahbaz kabi tadqiqotchilar ishlari ayniqsa muhimdir³⁸. Xususan, Sh.Ando, I.Binbash kabi olimlar “Tarixnoma”

³⁶ Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Тошкент, 1996. – Б. 17; Уватов У. Ибн Арабшоҳ Темур ва темурийлар даври маданий ҳаёти ҳақида // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. – Тошкент, 1997. – Б. 158-165; Аҳмедов Б.А., Мукминова Р.Г., Пугаченкова Г.А. Амир Темур. Жизнь и общественно-политическая деятельность. – Ташкент, 1999. – С. 5; Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари: (қадимги ва ўрта асрлар). – Тошкент, 2001. – Б. 173-174; Аҳмедов Б.А. Амир Темур дарслари: Умумий таълим ва махсус тарих мактаблари ўқитувчилари ва ўқувчилари учун қўлланма. – Тошкент, 2001. – 144 б.; Саидқосимов С., Аҳмедов А., Аҳмедов Б. ва бош. Амир Темур жаҳон тарихида. – Тошкент, 2001. – Б. 198-199; Аҳадов Ш.А., Эгамов Т.С. Амир Темур ва темурийлар даврининг интеллектуал салоҳияти. – Самарқанд, 2004. – 94 б.; Темиров Ф. Амир Темур даврида Марказий Осиёда илм-маърифат // Амир Темурнинг миллий давлатчилик сиёсати: тарих ва ҳозирги замон мавзудидаги Амир Темур таваллудининг 670 йиллигига бағишланган илмий конференция материаллари. – Тошкент, 2006. – Б. 80-87; Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent, 2008. – Б. 197-198; Натанзий Муиниддин. Мунтахаб ут-таворихи Муиний (Муиний тарихлари танланмаси). – Тошкент, 2011. – Б. 6; Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Тошкент, 2017. – Б. 26; История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. – Ташкент: Фан, 2017. – 568 с.; Юсупова Д. Письменные источники о развитии науки при Амуре Темура // Мавераннахр в эпоху Амира Темура. Археология, история. – Тошкент, 2018. – Б. 172-183; Мамадалиев Х. Самарқанд илмий мухитининг шаклланишида Амир Темурнинг ўрни // Мавераннахр в эпоху Амира Темура. Археология, история, культура. – Тошкент, 2018. – Б. 183-186; Бўриев О. Амир Темур ва Темурийлар тарихига оид асосий манбалар // Очерки историографии государственности Узбекистана. Т. 1. – Ташкент, 2018. – Б. 67-86; Дадабоев Х. Амир Темур даврдошлари (Амир Темур тарихидан сўзловчи энциклопедик луғат). – Ташкент, 2018. – Б. 176; Бўриев О. Турон тарихининг олтин даври. – Тошкент, 2019. – 367 б.; R.Arslonzoda. Manbashunoslik. Farg‘ona, 2022. – Б. 128-129.

³⁷ Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Тошкент. 1996. – Б. 17; Уватов У. Ибн Арабшоҳ Темур ва темурийлар даври маданий ҳаёти ҳақида / Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. – Тошкент. 1997. – Б. 163; Аҳмедов Б.А. Амир Темур дарслари: Умумий таълим ва махсус тарих мактаблари ўқитувчилари ва ўқувчилари учун қўлланма. – Тошкент, 2001. – Б. 81-83; Ш.А.Аҳадов, Т.С.Эгамов. Амир Темур ва темурийлар даврининг интеллектуал салоҳияти. – Самарқанд. 2004. – Б. 9-10; Л.М. Бегимкулова. XV аср бошларида Мовароуннахрда ҳокимият учун кураш (кучлар нисбати ва натижалар таҳлили). – Фарғона. 2021. – Б. 141.

³⁸ Hinz Walther. Quellenstudien zur Geschichte der Timuriden / Zeitschrift der Deutschen Morgenländischen Gesellschaft. Vol. 90 (n.F. 15). No. 2 (1936). – S. 357-398; Woods J.E. The Rise of Timurid Historiography // Journal of Near Eastern Studies. Vol. 46. N 2. 1987. – P. 88; Ando Shiro. Die timuridische Historiographie II – Šaraf al-Dīn ‘Alī Yazdī. – Kyoto, 1995. – P. 219–246; Ilker Evrim Binbas. Sharaf Al-Dīn 'Alī Yazdī (ca. 770s-858/ca. 1370s-1454): prophecy, politics, and historiography in late medieval islamic history. – Chicago, 2009. – P. 271; ۲۳–۲۵. شماره ۴۰. شهرزاد ساسان معرفى نسخه خطى «شمس الحسن» اثر تاج الدين سلماني. كتاب ماه تاريخ و جغرافيا بهمن ۱۳۷۹ شماره ۴۰. فاطمه رستمى. تاريخ نگارى شمس الحسن و وجوه اشتراك آن با دو اثر متأخر خود (ظفرنامه يزدي و جامع التواريخ حسنى)، دو فصلنامه. پور. ۷۳ / الزهراء، سال بيست و دوم، دوره جديد، شماره ۱۰. پياپى ۹۴. پاييز و زمستان. ص. ۵۵. علمى- پژوهشى تاريخ نگرى و تاريخ نگارى دانشگاه ۱۳۹۱ ; Roemer H.R. Timur and His Successors in Iran // The Cambridge history of Iran. – Vol. 6. The Timurid and Safavid periods, ed. Peter Jackson and Laurence Lockhart. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 42-146; Manz B.F. The rise and rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – P. 128-148; O‘sha muallif. Power, Politics and Religion in Timurid Iran. – Cambridge, 2007. – 336 p.; İsmail Aka. Timur ve Devleti. – Ankara, 2000. – S. 172; O‘sha muallif. Şahrüh ve Zamani (1405-1447). – Ankara, 1994. – S. 260; O‘sha muallif. Mirza Şahrüh zamaninde (1405-1447) timurular da imar faaliyetleri. – Belleten, 1984. – S. 189-190; Ali Rıza

asarining Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asari bilan bog‘liq jihatlariga to‘xtalgan bo‘lsa³⁹, F.Rustamiy uch manba - Toj Salmoniy “Tarixnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” va Ibn Shihob Yazdiy “Jome ut-tavorix Xasaniy” asarlarini Amir Temur vafotidan so‘ng uning vorislari tomonidan sulola humronligini yanada mustaxkamlash maqsadida yaratilgan asarlar sifatida talqin qiladi⁴⁰.

Dissertasiyaning “**Amir Temur va temuriylar davri siyosiy jarayonlarining (1404 – 1409) “Tarixnoma” asarida aks etishi**” deb nomlangan ikkinchi bobida Amir Temurning Xitoyga qarshi harbiy yurishi, uning vafotidan keyingi hokimiyat uchun kurashlar, Xuroson, Ozarbayjon, Iroq va Fors mintaqalarida sodir bo‘lgan siyosiy jarayonlar, Turonda siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, Xalil Sulton hokimiyatini inqiroziga olib kelgan omillar kabi siyosiy masalalar tadqiq qilingan.

Amir Temurning vafoti va valiahd tayinlashi masalasi “Tarixnoma”da Hofiz Abru “Zayl”iga nisbatan anchayin batafsil bayon etilganini ko‘rish mumkin. Xususan, Hofiz Abru Amir Temurning o‘z o‘limini bashorat qilishi va uning tabirlari tomonidan tasdiqlanishi haqida gapirsa⁴¹, Toj Salmoniy ushbu ma‘lumotlarni juda boy va mufassal keltirgan. “Tarixnoma”da Amir Temur vafoti oldidan amalga oshirilgan diniy tadbirlar, uning o‘lim to‘shagidagi vasiyati, valiahd sifatida Pirmuhammadning (1376 – 1407) tayinlanishi, farzandlari orasida birdamlikni saqlash zarurati kabi masalalar yoritilgan⁴².

Amir Temur vasiyatiga ko‘ra, jahongiriy Pirmuhammadning voris sifatida tayinlanishi voqeasi “Tarixnoma”, “Zafarnoma”⁴³ va “Tarixi Ja‘fariy”⁴⁴ asarlarida mavjud bo‘lib, ushbu davr tarixchilaridan Hofiz Abru ham, Mu‘iniddin Natanziy ham ushbu vasiyatini umuman tilga olmagan⁴⁵. Shu bilan birga, Mu‘iniddin Natanziy va Abdurazzoq Samarqandiylar o‘z asarlarida Amir Temurning haqiqiy vorisi sifatida uning o‘g‘li Shohruxni aytib o‘tganlar⁴⁶.

Ushbu davrga oid manbalardan temuriyzodalar o‘rtasidagi murakkab vaziyatni yanada murakkablashtirishda saroy a‘yonlarining “xizmati” katta bo‘lganligini bilib olish qiyin emas. Xususan “Tarixnoma”da shunday a‘yonlardan biri sifatida amir Jokuning o‘g‘li Burunduq ko‘rsatilgan. Asarda Burunduqning bir tarafda Amir Temur vasiyatiga xayrixoh bo‘lgani, ikkinchi tomondan esa Xalil Sultonni hokimiyatni egallashga, mamlakatni qo‘lga olishga undagani aniq misollar orqali ochib berilgan⁴⁷.

Yağlı. Timurlu Devleti Emirleri. I-Barlas Boyu: Hudaydad Huseyni Barlas // Turk tarihine dair Yazilar III. – Ankara, 2018. – S. 745-758; Musa Şamil Yüksel. Timurlularda Din-Devlet İlişkisi. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 2009; Mehibe Şahbaz. Timurlu mirzalar meselesi // Ç.Ü. Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. Cilt 27. Sayı 2. 2018. – S. 18-32.

³⁹ Die timuridische Historiographie II – Şaraf al-Dīn ‘Alī Yazdī. – P. 225; Sharaf Al-Dīn ‘Alī Yazdī (ca. 770s-858/ca. 1370s-1454): prophecy, politics, and historiography in late medieval islamic history. – P. 271.

⁴⁰ تاریخ نگاری شمس الحسن و وجوه اشتراك آن با دو اثر متأخر خود (ظفرنامه یزدی و جامع التواریخ حسنی). ص. ۶۳ – ۶۶

⁴¹ Зайли “Зафарнома”и Шомий. – Б. 399-401.

⁴² تاریخنامه (شمس الحسن). ص. ۴۰

⁴³ ظفرنامه. ص. ۸۷۴–۸۷۵

⁴⁴ تاریخ اولاد تیمور از تواریخ ملوک و انبیاء. ص ۳۷.

⁴⁵ Die timuridische Historiographie II –Şaraf al-Dīn ‘Alī Yazdī. –B. 226.

⁴⁶ Мунтахаб ут-тавориҳи Муиний. – Б. 185; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажма баҳрайн. II Жилд. 1- қисм. – Тошкент. 2008. – Б. 46.

⁴⁷ تاریخنامه (شمس الحسن). ص. ۱۴۴

Pir Ali Toz bundan o‘zining shaxsiy maqsadi, ya’ni Pirmuhammadning ayoliga egalik qilishni ham ko‘zlaganligi yuqorida aytib o‘tilgan “Tarixnoma” va “Tarixi Ja’fariy” asarlarida keltirilgan ma’lumotlar ko‘rsatib turibdi.

Dissertasiyaning “**Temuriylar saltanatida 1404 – 1409 yillari yuz bergan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning “Tarixnoma” asarida yoritilishi**” deb nomlangan uchinchi bobida “Tarixnoma” asarida qayd etilgan iqtisodiy-ijtimoiy masalalar va manbada keltirilgan temuriy hukmdorlar, shahzodalar va malikalarga, siyosiy arboblari, harbiy mansab va mansabdorlarga doir tarixiy ma’lumotlar tahlil etilgan.

Ushbu bobning “*Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, etnik, diniy, tarixiy geografiya, tabiat hodisalariga oid ma’lumotlar*” deb nomlangan birinchi paragrafida “Tarixnoma” asaridagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, etnik, diniy, tarixiy geografik, tabiat hodisalariga oid qimmatli ma’lumotlar xususida so‘z yuritiladi.

Toj Salmoniy Amir Temurning ko‘chma xazinasi, ya’ni Xitoy yurishidagi xarajatlar uchun mo‘ljallangan katta qimmatliklar bo‘yicha birinchi bo‘lib ma’lumot qoldirgan. “Tarixnoma”da ushbu harbiy yurish bekor qilinganidan so‘ng yuz bergan siyosiy jarayonlar zamirida hukmdor ko‘chma xazinasining keyingi taqdiri ham bayon qilingan.

Xalil Sultonning xazinani birdan-bir najot o‘laroq ko‘rishi uning siyosiy jihatdan qanchalar kuchsiz bo‘lganiga o‘ziga xos ishoradir. Masalan, u Sulton Husayn⁵⁶ qo‘zg‘oloni haqida xabar topishi bilan yana xazinadan mol-mulk berishni boshlab yuborgan. Qo‘rquv va sarosimadan oltinni *xarvor* o‘lchamida tarqattingan. Toj Salmoniyning mubolag‘ali ta’rifiga ko‘ra, bu borada shu darajada isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilganki, uning o‘ndan birining o‘ndan birini hisoblasa, asrlar davomida tugamaydi⁵⁷.

Asarning yana bir muhim jihati mintaqadagi xalqlarning ahvoli bilan bog‘liqdir. Chunonchi, Xalil Sulton hukmronligi davrida Amir Temur tomonidan Samarqandga ko‘chirib keltirilgan, uning xizmatiga kirgan iroqliklar, tatarlar, joniqurboniylar, Iroq va Xuroson kurdleri, mo‘g‘ullar, dashtlik turkiy urug‘lar birin-ketin o‘lkani tark etganlar. Toj Salmoniy ushbu o‘zgarishlarda yana Xalil Sultonni ayblab, uning siyosatdagi uquvsizligiga urg‘u beradi⁵⁸.

Amir Temur davri a‘yonlarini yaxshi bilgan Toj Salmoniy ularning ijtimoiy kelib chiqishi xususida muhim ma’lumotlar qoldirgani bilan ham ajralib turadi. Masalan, Sayfiddin⁵⁹, Sa‘idxo‘ja, Uch Qaro kabi ko‘zga ko‘ringan amirlar aslida qullardan bo‘lganlari ayonlashadi. Sa‘idxo‘ja va uning ota-bobolari *barlos* urug‘ining *chagana* butog‘i qullariga borib taqalgan⁶⁰. Sayfiddin esa *nukuz*lardan chiqqan qul bo‘lib, amir Musoka⁶¹ unga meros huquqi bilan egalik qilgan. O‘z o‘rnida, Uch Qaro Tengiz tarxon⁶² tomonidan sotib olingan qul bo‘lib, G‘iyosiddin tarxon⁶³ unga aynan shu asosda egalik qilgan. Keyinchalik Amir Temur uni arzon

⁵⁶ Sulton Husayn (1380 – 1405) — Amir Temurning kichik qizi O‘gibegimning Muhammadbekdan tug‘ilgai o‘g‘li.

⁵⁷ ۲۳۱ – ۲۳۰. ص. تاريخ نامه (شمس الحسن).

⁵⁸ ۳۹۹–۳۹۸ ’۴۰۶–۴۰۵. ص. تاريخ نامه (شمس الحسن).

⁵⁹ Sayfiddin — Amir Temur davri ulug‘ amirlaridan biri.

⁶⁰ ۲۹۲. ص. تاريخ نامه (شمس الحسن).

⁶¹ Musoka — Chanki qavchinning o‘g‘li; 1414-yili O‘sh atrofida Amirak Ahmad mirzo askarlari tomonidan o‘ldirilgan.

⁶² Hamza Kuchak — Pirmuhammad Jahongiriy harbiy sarkardalaridan biri.

⁶³ G‘iyosiddin tarxon — Amir Temur davri ulug‘ amirlaridan biri.

bahoga sotib olib, bir qancha muddat saroyda xizmat qilganidan so‘ng qullikdan ozod etgan⁶⁴.

